

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**XOLMATOV OYBEK UMARJON O‘G‘LI**

**E.M.REMARK VA O‘.HOSHIMOV ROMANLARIDA URUSH KISHILARI  
OBRAZINING QIYOSIY-TIPOLOGIK TALQINI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on  
Philological sciences**

**Xolmatov Oybek Umarjon o‘g‘li**

E.M.Remark va O‘.Hoshimov romanlarida urush kishilari obrazining qiyosiy-  
tipologik talqini..... 3

**Kholmatov Oybek Umarjon ugli**

A comparative-typological analysis of the portrayal of war figures in the novels of  
E.M.Remarque and U.Hoshimov..... 25

**Холматов Ойбек Умаржон угли**

Сравнительно-типологическая интерпретация образа человека на войне в  
романах Э.М.Ремарка и У.Хашимова..... 45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

List of published works

Список опубликованных работ..... 49

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**XOLMATOV OYBEK UMARJON O‘G‘LI**

**E.M.REMARK VA O‘.HOSHIMOV ROMANLARIDA URUSH KISHILARI  
OBRAZINING QIYOSIY-TIPOLOGIK TALQINI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2021.4.PhD/Fil2132 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Farg'ona davlat universiteti veb-sayti (www.fdu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Kasimov Abdugapir Abdikarimovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Sadikov Zohidjon Yakubjanovich,**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasulova Umida Yo'ldosh qizi,**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan davlat chet tillari instituti**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "22" may soat 8:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'indoniy ko'chasi, 105-uy. Tel.: (99873) 244-57-82; e-mail: info@fdu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (519 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "5" may kuni tarqatildi.

(2025-yil "5" may dagi 28 raqamli reestr bayonnomasi)



**S. M. Muminov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**M. T. Zokirov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
filologiya fanlari nomzodi, professor

**A. G. Sabirdinov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida urush kishilari obrazini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish dolzarb masalalardan biridir. XX asrga kelib jahon adabiyotida urush mavzusiga e'tibor yuqori bosqichga ko'tarilib, urush kishilarini qahramon ruhiyati, ijodkor uslubi nuqtai nazaridan o'rganish muhim masalaga aylandi. Bunga ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, jahon urushlari sabab bo'ldi. Dunyo bo'ylab mintaqaviy mojarolar, geosiyosiy vaziyatning keskinlashuvi tobora kuchayib borayotgan bugungi kunda ham urush badiiy adabiyotning eng dolzarb mavzularidan biri bo'lib qolmoqda. Shu sababli badiiy asarlarda o'z ifodasini topgan urush kishilari obrazini davr va qahramon, ijodkor uslubi, adabiy ta'sir, o'ziga xoslik, badiiy psixologizm doirasida ilmiy tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida urush kishilari obraziga doir maxsus ilmiy izlanishlar XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jadal rivojlanib borayotgan globallashuv jarayonlari bilan aloqador bo'lib, urush kishilarining genezisi, tadrijiy takomili, badiiy talqini va tasnifi bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu jarayonda urush kishilari obrazi vositasida ijodkorning poetik mahoratini, badiiy asarlarning g'oyaviy-falsafiy ahamiyati va qiymatini belgilash, obraz takomiliga doir yangi ilmiy xulosalar chiqarish alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda urush mavzusidagi asarlarni gumanistik tamoyillar asosida tahlil qilish, urush kishilari obrazini jahon adabiyotshunosligining ilg'or tajribalari hamda zamonaviy yondashuvlari asosida o'rganish dolzarb ilmiy ahamiyatga ega.

So'nggi yillar o'zbek adabiyotida insonni davrning eng dolzarb muammolari bilan aloqadorlikda tasvirlashga, qahramon ruhiyati, ichki olamini tahlil etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Davr va inson muammolarining badiiy in'ikosi, bu jarayonda badiiy asar qahramonining tafakkur va ruhiyatida yuz bergan evrilishlari tasviri, ayniqsa, urush kishilari obrazi orqali aniq ko'rinadi. Shu bois jahon va o'zbek nasrida, xususan, roman janrida aks ettirilgan urush kishilari obrazining badiiy talqinini qiyosiy-tipologik asosda tadqiq etish dolzarb masala hisoblanadi. Bugungi kunda xalqaro maydonda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar urush mavzusiga doir ilmiy tadqiqotlarning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan ta'kidlanganidek: "ayniqsa, hozirgi notinch va tahlikali zamonda butun bashariyat oldida paydo bo'layotgan, biz ilgari duch kelmagan g'oyat murakkab muammolar, global xavf-xatarlarni birgalikda bartaraf etish, shu yo'lda barcha ezgu niyatli insonlarni birlashtirishda, dunyo aholisining qariyb uchdan bir qismini tashkil etadigan yoshlarni gumanistik g'oyalar ruhida tarbiyalashda badiiy so'z san'atining o'rni va mas'uliyatini har qachongidan ham yuksaltirish zarurligini bugun hayotning o'zi taqozo etmoqda"<sup>1</sup>. Shu ma'noda patsifizm ruhini o'zida aks ettiruvchi badiiy asarlarni ilmiy asosda to'g'ri baholash, badiiy tahlil vositasida asarlarda ilgari surilgan tinchlikparvarlik g'oyalarini ochib berish zarurati dolzarb ahamiyatga ega.

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Нияти улуг' халқнинг иши ҳам улуг', ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli, 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyalari to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmonlari, 2023-yil 3-iyuldagi “Ma‘muriy islohotlar doirasida oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-200-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 13-martdagi “O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini 2024–2025-yillarda amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 128-sonli qarori, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida urush kishilari obrazini ilmiy o‘rganishga bag‘ishlangan ishlar salmoqli o‘rin egallaydi. Bu borada G‘arb olimlaridan V.Dorow, D.L.Gustafson, K.V.Nikich, D.Bevan, S.Haynes, M.Sonntag, M.Norris, E.Krimmer, J.E.Mackinon, Y.Vollmer, L.Goldenson, K.Makloulin, T.Riggs, A.Vernon<sup>2</sup>, rus olimlaridan P.Toper, O.Golovan, A.Ivanov, A.Malishhev, N.Vigovskaya, D.Aristov, V.Volkova, Y.Zadonskayalar<sup>3</sup>ning tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi. O‘zbek adabiyotshunosligida

---

<sup>2</sup> Dorow W. Krieg, Literatur und Theater: Mittheilungen zur neueren Geschichte. – Leipzig: Reclam, 1845. <https://archive.org/details/kriegliteraturu01dorogooq/page/n14/mode/2up>; Gustafsson D.L. Neue Sachlichkeit and the German War Novel from 1928 to 1930. Dissertation for the degree of Doctor of Philosophy. – University Microfilms, 1984; Nickisch C.W. The Image of the Officer in Postwar West German Prose Fiction. Dissertation for the degree of Doctor of Philosophy. – University of Nebraska, 1985; Bevan D. Literature and War. – Amsterdam: Rodopi, 1989; Hynes S. A War Imagined: The First World War and English Culture. – London: Bodley Head, 1990; Sonntag M. German Exile Literature, 1933–1945 in the College curriculum. Dissertation for the degree of Doctor of Arts. – State University of New York, 1993; Norris M. Writing War in XXth century. – Charlottesville: University Press of Virginia, 2000; Krimmer E. Representation of War in German literature. – Cambridge, UK: Cambridge University Press, 2000; Mackinon J.E. Speaking and Unspeakable: War Trauma in Six Contemporary Novels. Thesis presented for the degree Doctor of Philosophy. – Adelaide, 2000; Goldenson L. XXth century Soldier-Poetry. – New-York: Columbia University Press, 2003; Vollmer J. Imaginäre Schlachtfelder. Kriegsliteratur in der Weimarer Republik. Dissertation zur Erlangung des Grades eines Doktors der Philosophie. – Berlin, 2003; McLoughlin K. Companions to Literature. – New-York: Columbia University Press, 2009; Riggs T. The Literature of War. – Detroit: St.James, 2012; Vernon A. War: Critical Insights. – Ipswich: Salem, 2013.

<sup>3</sup> Топер П.М. Война и история (Советская литература о Великой Отечественной войне в контексте мирового литературного процесса). / Вторая мировая война в литературе зарубежных стран. – М.: Наука, 1985. – С.5-68.; Голован О.В. Семантико-ассоциативная структура концепта “война” (на материале произведений Р.Олдингтона и В.М.Гаршина). Автореферат дисс.канд.филол.наук. – Барнаул, 2003; Иванов А.И. Первая мировая война и русская литература 1914-1918 гг.: этические и эстетические аспекты. Автореферат дисс.док.филол.наук. – М., 2005; Мальшев А.А. Художественная баталистика в русской литературе второй половины XIX века (кампании 1853–1856 и 1877–1878 гг.). Автореферат дисс.канд.филол.наук. – Тверь, 2006; Выговская Н.С. Молодая военная проза второй половины 1990 – начала 2000-х годов имена и тенденции. Автореферат канд.дисс.филол.наук. – М., 2009; Песков В.М. Война и люди: [сборник]. – М.: Эксмо, 2010; Аристов Д.В. Русская батальная проза 2000-х годов: традиции и трансформации. Автореферат дисс.канд.филол.наук. – Пермь, 2013; Волкова В.Б. Концептосфера современной военной прозы. Автореферат дисс.док.филол.наук. –

ushbu mavzu yuzasidan A.Sharopov, S.Mamajonov, N.Bekmirzayev, U.O‘ljaboyev kabi olimlarning tadqiqotlari<sup>4</sup> alohida ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi tadqiqotlarda urush mavzusining adabiy-estetik tafakkur takomilida tutgan o‘rni, urush kishilari obrazining genezisi va taraqqiyot tamoyillari turli adabiy davrlar, milliy adabiyotlar yoki muayyan ijodkorlarning asarlari misolida o‘rganilgan. Lekin jahon va o‘zbek nasrida urush kishilari obrazining qiyosiy tadqiqi bo‘yicha maxsus izlanishlar olib borilmagan.

Erix Mariya Remark ijodi yuzasidan A.Antkoviak, A.Bans, H.Klayn, M.Parvanova, D.Morev, E.Lipina, A.Porshneva, O.Poxalencov, R.Qo‘chqor, Y.Egamova, D.Ayupova, M.Matveyev, A.Markin, M.Xaritonov<sup>5</sup>; O‘tkir Hoshimov ijodi bo‘yicha U.Normatov, A.Rasulov, Y.Solijonov, B.Nazarov, A.Og‘ir, M.Sharafutdinova, G.Imomkarimova, O.Duysenbayev, U.To‘rayeva, Z.Mirzayeva, A.Qayumov<sup>6</sup> kabi olim va tadqiqotchilar tomonidan salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Ulardan D.Morev, E.Lipina, O.Poxalencov, M.Sharafutdinovalarning tadqiqotlari qiyosiy tipologiya doirasida bajarilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Biroq aynan Erix Mariya Remark va O‘tkir Hoshimov asarlarini qiyosiy aspektda o‘rganishga, shuningdek, urush kishilari tasvirida badiiy psixologizm, o‘zbek prozasida “yo‘qotilgan avlod” adabiyotiga xos xususiyatlarning aks etishi kabi masalalarga doir monografik plandagi maxsus tadqiqot bajarilmagan.

---

Екатеринбург, 2014; Задонская Е.В. Авторские стратегии в современной военной прозе. Автореферат дисс.канд.филол.наук. – Тверь, 2017.

<sup>4</sup> Шаропов А. Ўзбек ҳарбий прозасида жанчи образи (1941 – 1960 йиллар). Филол.фан.номз...дисс. – Тошкент, 1971; Мамажонов С. Улуг Ваган уруши даврида ўзбек адабиёти. – Тошкент: Фан, 1975; Бекмирзаев Н. Ўзбек Совет ҳарбий прозаси. – Тошкент: Фан, 1981; Ўлжабоев У. Ўзбек ҳарбий прозасида характер яратишнинг баъзи масалалари. – Тошкент: Фан, 1989.

<sup>5</sup> Antkowiak A. Erich Maria Remarque. Leben und Werk. – Berlin: Volk und Wissen, 1977. – 157 S.; Bance A. “Im Westen Nichts Neues”: A Bestseller in Context, Modern Language Review, 72 (1977). – P.359-373; Klein H. Basic Attitude and Enemy Images in the Representation First World War by Remarque // War and Literature – 1989, 4. Vol. I. – P.7-32; Parvanova M. “...das Symbol der Ewigkeit ist der Kreis”. Eine Untersuchung der Motive in den Romanen von Erich Maria Remarque. – Berlin: Tenea, 2003; Морев Д.А. Берлин как текст в метаромане В.В.Набокова и Э.М.Ремарка. Автореферат дисс.канд.филол.наук. – М., 2008; Липина Е.А. Реализация лингвокультурного концепта “время военное / Kriegszeit” в идиолектах К.М.Симонова и Э.М.Ремарка (на материале текстов военной прозы). Автореферат дисс.канд.филол.наук. – Тюмень, 2008; Поршнева А.С. Пространство эмиграции в романном творчестве Э.М.Ремарка. Автореферат дисс.канд.филол.наук. – Екатеринбург, 2010; Похаленков О.Е. Концепт «враг» в творчестве Эриха Марии Ремарка и советской «лейтенантской прозе» 1950-60-х гг. Автореферат дисс.канд.филол.наук. – Иваново, 2011; Қўчқор Р. Мавжудлик муаммоси. // “Тафаккур” журнали. 2014, № 4. – Б.63-67; Egamova Y., Ayupova D. Remark uslubi va uni tarjimada berish. / <https://kh-davron.uz>; Матвеев М.А. Принципы формирования поэтики ранних произведений Э.М.Ремарка. Диссертация канд.филол.наук. – СПб., 2015; Время Ремарка. К 120-летию со дня рождения писателя. Библиографический дайджест. – Волжский, 2018.

<sup>6</sup> Норматов У. Бугунги насримизнинг етакчи тамойиллари. // “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали. 2001, № 3. – Б.3-6; Расулов А. Ардоқли адиб. – Тошкент: Шарқ, 2001; Солижонов Й. “Икки эпик ораси”дан “Лолазор”га ўтувчи. // Шарқ юлдузи. 2001, № 4. – Б.125-128; Ag‘ir A. From Colonial to Post Colonial Future: Uzbek Novels (Qodiriy, Oybek, Hoshimov). Wisconsin University, Madison: 2003; Назаров Б. Ёзувчининг маънавий жасорати. // “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали. 2011, № 3. – Б.30-33; Эл севган адиб (Ў.Ҳошимов замондошлари наздида). – Тошкент: Мумтоз сўз, 2011; Шарафутдинова М.О. Особенности повествовательной структуры узбекского романа XX века в контексте мировой литературы. Дисс.док.филол.наук. – Тошкент, 2010; Имомкаримова М.М. Ўткир Ҳошимов асарларида миллий қадриятлар талқини. – Филол.фан.номз...дисс. – Тошкент, 2004; Тўраева У. Давр ва қаҳрамон. // “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали. 2000, №2. – Б.40-43; Дуйсенбаев О. Ўткир Ҳошимов ижодида она образи. Филол.фан.номз...дисс. – Тошкент, 2011; Мирзаева З. “Тушда кечган умрлар”нинг хориждаги бир таҳлили хусусида. // “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали. 2015, №2. – Б.56-59; Қайумов А.А. Ҳозирги ўзбек насрида миллий характер ва бадий маҳорат (Ўткир Ҳошимов ва Наби Жалолiddин ҳикоялари мисолида). Филол.фан.б.фалс.док...дисс. – Фарғона, 2018.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Qiyosiy adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Erix Mariya Remark va O'tkir Hoshimov romanlarida aks ettirilgan urush kishilari obrazini qiyosiy-tipologik asosda tadqiq etishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

adabiyotshunoslikda urush mavzusi talqini, xususan, urush kishilari obraziga doir ilmiy-nazariy qarashlarni tizimlashtirish;

urush kishilari obrazining genezisi va tadrijiy takomilini o'rganish;

XX asr nemis va o'zbek nasrida urush kishilari obrazini tipologik asosda tasniflash;

E.M.Remarkning "Uch og'ayni" ("*Drei Kameraden*") va O'.Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanlari orqali "yo'qotilgan avlod", davr va qahramon muammolarining ahamiyatini ochib berish;

"G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" ("*Im Westen nichts Neues*") va "Tushda kechgan umrlar" romanlarida askar obrazini yaratishda psixologizmning o'rnini aniqlash;

harbiy prozada dushman obrazining g'oyaviy-falsafiy xususiyatlarini tahlil qilish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida Erix Mariya Remarkning "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q", "Uch og'ayni"; O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanlari olingan. Shuningdek, mazkur mualliflarning urush kishilari obrazi yetakchi bo'lgan boshqa asarlariga ham qisman murojaat etilgan.

**Tadqiqot predmetini** badiiy adabiyotda urush kishilari obrazining genezisi, Erix Mariya Remark va O'tkir Hoshimov romanlarida urush kishilari tipologiyasi hamda harbiy prozada psixologik tasvirning badiiy in'ikosi tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tahlilning qiyosiy-tipologik, biografik, sotsiologik, psixologik usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilar bilan belgilanadi:

badiiy adabiyot taraqqiyotida urush kishilari obrazining paydo bo'lish asoslari, mazkur qahramonlarga xos mubolag'adorlik, ramziylik, individuallik kabi poetik xususiyatlar hamda davriy jihatdan farqlanishlar aniqlangan;

Erix Mariya Remark va O'tkir Hoshimov romanlaridagi urush kishilari tasviri qiyosiy-tipologik tasnif asosida tizimlashtirilib, XX asr nemis va o'zbek harbiy prozasida patsifizm g'oyasining yetakchi xususiyat kasb etganligi ilmiy asoslangan;

"Uch og'ayni" va "Tushda kechgan umrlar" romanlarida yo'qotilgan avlod muammosi qahramon ruhiyati va tafakkuridagi o'zgarishlar negizida yoritilgani, askar obrazi dinamikasi urushga raddiyani namoyon etishda hal qiluvchi ahamiyatga egaligi isbotlangan;

"G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" va "Tushda kechgan umrlar" romanlarida dushman obrazi sarkazm hamda paradoks usullari vositasida talqin etilib, g'oyaviy-falsafiy jihatdan "asl dushman" masalasini fosh etish funksiyasini bajarganligi dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

urush kishilari obrazining genezisi va badiiy-estetik xususiyatlarini tadqiq etish orqali chiqarilgan xulosalar o‘zbek adabiyotshunosligi uchun muhim ilmiy-nazariy ma’lumotlar berishi, adabiyotshunoslik nazariyasi, qiyosiy adabiyotshunoslik, jahon adabiyoti, o‘zbek adabiyoti tarixi, yangi o‘zbek adabiyoti, badiiy tahlil asoslari kabi fanlardan yaratiladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalar takomiliga xizmat qiladi;

tadqiqot natijalari asosida nashr etilgan maqolalar adabiyot ta’limida talabalarning jahon adabiyotini o‘rganish yuzasidan qiziqishlarini oshirish, milliy adabiyotimiz namunalarini jahon adabiyoti durdonalari bilan qiyosiy tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi;

urush kishilari obrazidagi psixologizm va konflikt masalasi, unda ilgari surilgan muallif badiiy-estetik maqsadi asosida hozirgi jamiyat urushning g‘ayriinsoniy mohiyatini to‘g‘ri anglashi lozimligi hamda bu munosabat jamiyatning axloqiy-ma’naviy takomilida muhimligi ko‘rsatilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** chet el va o‘zbek olimlarning nazariy fikrlariga tayanilganligi, muammoning aniq qo‘yilganligi, chiqarilgan xulosalar qiyosiy-tipologik, biografik, sotsiologik, psixologik metodlar orqali dalillanganligi, urush kishilari obrazining poetik xususiyatlarini izohlashda jahon va o‘zbek nasrining yetuk vakillari tomonidan yaratilgan asarlarga murojaat qilinganligi hamda qo‘yilgan muammo ilmiy dalillanganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, undagi nazariy xulosalar jahon adabiyoti, yangi o‘zbek adabiyoti, qiyosiy adabiyotshunoslik bo‘yicha ishlarni yaratish, oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan adabiyotshunoslikka oid fanlarni yangi ilmiy xulosalar bilan boyitishga xizmat qiladi. Shuningdek, nazariy xulosalar jahon va o‘zbek adabiyoti tarixida shakllangan badiiy obraz tadriji bo‘yicha mavjud ma’lumotlarni to‘ldiradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, roman janri tabiati, urush kishilari obrazining poetik xususiyatlari, badiiy psixologizm haqidagi qarashlar adabiyotshunoslik nazariyasi, qiyosiy adabiyotshunoslik, jahon adabiyoti, yangi o‘zbek adabiyoti, badiiy tahlil asoslari kabi fanlardan yaratiladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining takomillashuviga xizmat qiladi, adabiyotshunoslik fanlarini o‘qitishda qo‘shimcha manba sifatida yordam beradi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** E.M.Remark va O‘.Hoshimov romanlarida urush kishilari obrazini tadqiq etish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

badiiy adabiyot taraqqiyotida urush kishilari obrazining paydo bo‘lish asoslari, mazkur qahramonlar tasviridagi mubolag‘adorlik, ramziylik, individuallik kabi poetik xususiyatlar hamda davriy jihatdan farqlanishlar asosidagi ilmiy-nazariy xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2017–2020-yillarda bajarilgan FA-F1-005 raqamli “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental ilmiy loyihasini bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 4-sentabrdagi 359/1-son

ma'lumotnomasi). Natijada loyihaning ilmiy-nazariy hamda ilmiy-amaliy ahamiyati ortdi;

Errix Mariya Remark va O'tkir Hoshimov romanlaridagi urush kishilari tasviri qiyosiy-tipologik tasnif asosida tizimlashtirilib, XX asr nemis va o'zbek harbiy prozasida patsifizm g'oyasining yetakchi xususiyat kasb etganligi to'g'risidagi xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan FA-043429 raqamli "Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish" mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 21-noyabrdagi 545-son ma'lumotnomasi). Buning natijasida loyiha materiallari urush mavzusining nemis va o'zbek harbiy prozasidagi talqinlari, urush kishilari obraziga xos poetik xususiyatlarning qiyosiy tahliliga doir xulosalar vositasida ilmiy asoslar va samarador tahliliy materiallar bilan boyidi;

"Uch og'ayni" va "Tushda kechgan umrlar" romanlarida "yo'qotilgan avlod" muammosi qahramon ruhiyati va tafakkuridagi o'zgarishlar negizida yoritilgani, askar obrazi dinamikasi urushga raddiyani namoyon etishi bo'yicha ilmiy xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Mahalla" teleradiokanali ijodkorlari tomonidan 2024-yil uchinchi choragida efirga uzatilgan "Bir asar tarixi" radioeshittirishini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Mahalla teleradiokanali" davlat muassasasining 2024-yil 13-sentabrdagi 14-son ma'lumotnomasi). Natijada "Tushda kechgan umrlar" romani haqida berilgan ma'lumotlar, romanda ifodalangan obrazlarga xos xususiyatlar to'g'risidagi nazariy xulosalari eshittirishning mazmunini boyitishga xizmat qildi;

"G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" va "Tushda kechgan umrlar" romanlarida dushman obrazi sarkazm va paradoks usullari vositasida talqin etilib, g'oyaviy-falsafiy jihatdan "asl dushman" masalasini fosh etish funksiyasini bajarganligi to'g'risidagi tahlil va xulosalardan Farg'ona davlat universitetida 2019–2021-yillarda bajarilgan "EMI (English as a Medium of Instruction)" xalqaro loyiha doirasida samarali va keng foydalanilgan (Farg'ona davlat universitetining 2024-yil 23-sentabrdagi 04/5229-son ma'lumotnomasi). Natijada bajarilgan ishlar yangi ilmiy tahlillar va xulosalar bilan boyitilib, loyihaning ilmiy-nazariy ahamiyati ortdi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari jami 7 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 3 ta respublika, 4 ta xalqaro konferensiyalarda ilmiy jamoatchilik muhokamasidan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika hamda 3 tasi xorijiy jurnalda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, har biri ikki fasldan tarkib topgan uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 150 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Ishning birinchi bobi “**Adabiyotshunoslikda urush mavzusining oʻrganilishi**” deb nomlanib, mazkur bobning “**Urush mavzusiga doir ilmiy-nazariy qarashlar tasnifi**” nomli dastlabki faslida jahon va oʻzbek adabiyotshunosligida urush mavzusidagi asarlarning ilmiy oʻrganilishi tadqiq etilgan.

Gʻarb adabiyotshunosligida urush mavzusiga doir ilmiy tadqiqotlar, asosan, ijtimoiy-siyosiy va tarixiy tamoyillar asosida olib borilgan. Xususan, ingliz olimlari Aleks Vernon, Devid Bevan, amerikalik tadqiqotchilar Keyt Makloulin, Tomas Riggslar tomonidan badiiy adabiyotda urush talqinlari masalasiga tarixiy omillar asosida yondashilib, turli davrlardagi asarlarning oʻziga xos xususiyatlari farqlangan<sup>7</sup>. Mazkur tadqiqotlarda urush mavzusidagi asar qahramonlari qadimgi adabiy manbalarda ilohiy qudratga ega boʻlgan, jasorat va qahramonlik xususiyatlari bilan ajralib turuvchi obrazlar sifatida tasvirlanganligi, XX asr adabiyotida esa bu xususiyat yoʻqolib, urush ishtirokchilari fojiali taqdir egalari sifatida aks ettirilganligini taʼkidlangan. Bu ilmiy qarashlar turli adabiy davrlar qiyosi orqali asoslanganligi bilan ahamiyatlidir. Ularda XX asr harbiy adabiyotining oʻziga xosligi, davrga xos adabiy yangiliklar kabi masalalarga alohida ahamiyat berilgan.

Elizabet Krimmer oʻz monografiyasida urush mavzusining nemis adabiyotidagi talqinini yoritadi. Tadqiqotda Napoleon yurishlari, Germaniya inqilobi, jahon urushlari, Yugoslaviya voqealarini aks ettirgan nemis adiblari: Fridrix Shiller, Ernst Yunger, Erix Mariya Remark, Geynrix Byoll, Gyunter Grass, Peter Handke kabi adiblarning asarlari misolida nemis yozma adabiyotida urush mavzusining tadriji oʻrganilgan<sup>8</sup>. Shuningdek, bevosita nemis adabiyotshunosligida ham Vilgelm Dorov, Yorg Volmer singari olimlar nemis adabiyotida aks etgan urushlar talqini, XX asr nemis harbiy prozasida uslub, qahramon, psixologizm kabi masalalar boʻyicha oʻz qarashlarini bayon etganlar. Jumladan, V.Dorov “Boʻron va tazyiq” adabiy harakati, I.Gerder, M.Klinger, F.Shiller kabi ijodkorlarning asarlari misolida nemis inqilobi va uning badiiy adabiyotda aks ettirilishi Germaniya jamiyatining birlashuvi, mamlakat ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotining muhim maʼnaviy omili boʻlib xizmat qilganligini taʼkidlash orqali urush va inqiloblarning XIX asr nemis madaniyati taraqqiyotida taʼsirini yuqori baholaydi<sup>9</sup>. Yana bir nemis olimi Yorg Volmer esa Birinchi jahon urushi va uning nemis adabiyotida aks etishini Veymar Respublikasi davri adabiyotiga oid muallif uslubi, avtobiografik omillar, psixologik tasvir, ijodkor

<sup>7</sup> Bevan D. *Literature and War*. – Amsterdam: Rodopi, 1989; Vernon A. *War: Critical Insights*. – Ipswich: Salem, 2013; McLoughlin K. *Companions to Literature*. – New-York: Columbia University Press, 2009; Riggs T. *The Literature of War*. – Detroit: St.James, 2012.

<sup>8</sup> Krimmer E. *Representation of War in German literature*. – Cambridge, UK: Cambridge University Press, 2000.

<sup>9</sup> Dorow W. *Krieg, Literatur und Theater: Mittheilungen zur neueren Geschichte*. – Leipzig: Reclam, 1845. – 323 S. URL: <https://archive.org/details/kriegliteraturu01dorogooog/page/n14/mode/2up>

fantaziyasi va reallik singari masalalar vositasida o‘rgangan<sup>10</sup>. Olim o‘z tahlillarini Valter Fleks, Leonard Frank, Lyudvig Renn, Erix Mariya Remark kabi yozuvchilarning asarlari misolida olib borgan. Ko‘rinadiki, nemis adabiyotshunosligida asosiy e‘tibor muallif uslubi va asarning ijtimoiy-siyosiy ahamiyatiga qaratilgan.

Rus adabiyotshunosligida ham urush mavzusi tadqiqiga doir katta hajmdagi ishlar amalga oshirilgan bo‘lib, ularda xilma-xil ilmiy yondashuvlarning guvohi bo‘lish mumkin. Bu jarayon badiiy asarlardagi urush talqinlariga mos tarzda o‘zgarib borgan. A.Ivanov, A.Malishev, Chjen Lu-Yan kabi olimlar XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab urushning kulfat, vayronagarchilik manbayi sifatida ifodalanishi (L.Tolstoy, V.Garshin), Birinchi jahon urushining rus xalqi boshiga solgan og‘ir sinovlari aks ettirilgan asarlar asosida urushga munosabatning rad etuvchi xarakterdaligini ilmiy asoslaydilar<sup>11</sup>. Zamonaviy rus harbiy prozasini tadqiq etgan N.Vigovskaya, D.Aristov, V.Volkova, Y.Zadonskaya singari tadqiqotchilar esa Ikkinchi jahon urushi mavzusidagi “leytenant prozasi” bilan afg‘on va chechen urushlari mavzusidagi asarlarni qiyoslab, XX asrning 50–80-yillari davomida qahramonlik va g‘alaba ruhi, XX asr oxiri – XXI asr boshlarida urushni rad etish ruhi ustun turishini isbotlaganlar<sup>12</sup>.

O‘zbek adabiyotshunosligida urush mavzusining o‘rganilishi bo‘yicha Salohiddin Mamajonov, Norqul Bekmirzayev, Umrzoq O‘ljaboyevlarning tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi. Jumladan, Salohiddin Mamajonov urush davridagi o‘zbek adabiyoti manzaralari adabiy turlar kesimida o‘rganib, bu davr adabiyotida harbiy safarbarlik ruhi ustuvor bo‘lganligi, mazkur holat har uch adabiy turga xos umumiy xususiyat ekanligini ta’kidlaydi<sup>13</sup>. U.O‘ljaboyev esa Ikkinchi jahon urushi mavzusida salmoqli ijod qilgan Abdulla Qahhor, Said Ahmad va O‘tkir Hoshimovlarning asarlarini tahlilga tortib, front orti kishilari, ayniqsa, qariyalar obrazining ma’naviy qiyofasi tasviriga alohida urg‘u beradi<sup>14</sup>. Olim Asror bobo, Ikromjon, Orif oqsoqol, Husan duma kabi qahramonlarning xarakter xususiyatlarini tadqiq etish orqali o‘zbek harbiy prozasida front ortida mehnat qilgan oddiy xalq vakillari obrazi yetakchi o‘rin tutishini asoslaydi.

Mustaqillik davri adabiyotida urush mavzusiga munosabat sezilarli darajada o‘zgarib, urushning har qanday ko‘rinishini rad etuvchi patsifizm tamoyili asosiy o‘rinni egallay boshladi. Bu borada afg‘on urushi mavzusidagi asarlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ikkinchi jahon urushi mavzusidagi asarlardan farqli ravishda

---

<sup>10</sup> Vollmer J. Imaginäre Schlachtfelder. Kriegsliteratur in der Weimarer Republik. Dissertation zur Erlangung des Grades eines Doktors der Philosophie. – Berlin, 2003. URL: <https://www.researchgate.net/publication/215441591>

<sup>11</sup> Иванов А.И. Первая мировая война и русская литература 1914 – 1918 гг.: этические и эстетические аспекты. Автореферат дисс.док.филол.наук. – М., 2005; Малышев А.А. Художественная баталистика в русской литературе второй половины XIX века (кампании 1853–1856 и 1877–1878 гг.). Автореферат дисс.канд.филол.наук. – Тверь, 2006; Чжен Лянь. Человек на войне в раннем творчестве Л.Н.Толстого (в свете идей китайской философии). Автореферат дисс.канд.филол.наук. – Иваново, 2015.

<sup>12</sup> Выговская Н.С. Молодая военная проза второй половины 1990 – начала 2000-х годов имена и тенденции. Автореферат канд.дисс.филол.наук. – М., 2009; Аристов Д.В. Русская батальная проза 2000-х годов: традиции и трансформации. Автореферат дисс.канд.филол.наук. – Пермь, 2013; Волкова В.Б. Концептосфера современной военной прозы. Автореферат дисс.док.филол.наук. – Екатеринбург, 2014; Задонская Е.В. Авторские стратегии в современной военной прозе. Автореферат дисс.канд.филол.наук. – Тверь, 2017.

<sup>13</sup> Мамажонов С. Улуг Ватан уруши даврида ўзбек адабиёти. – Тошкент: Фан, 1975.

<sup>14</sup> Ўлжабоев У. Ўзбек ҳарбий прозасида характер яратишнинг баъзи масалалари. – Тошкент: Фан, 1989. – Б.4.

“afg‘on” mavzusidagi asarlarda urushga munosabat masalasi yakdildir. Ya’ni barcha mualliflar bu mavzudagi asarlarda urushni qora bo‘yoqlarda, faqat o‘lim va azob-uqubat manbai sifatida aks ettiradilar. Bu xususiyat adabiy tanqidchilik tomonidan ham e’tirof etilgan. Xususan, Hakimjon Karimov afg‘on mavzusida yozilgan A.Nurmurodovning “Qon hidi” romanini tahlil qilish jarayonida bu urushni absurdlik asosida yuzaga kelgan urush sifatida baholasa<sup>15</sup>, Qozoqboy Yo‘ldoshev ushbu roman qahramonlariga nisbatan “begonalashgan avlod” atamasini qo‘llaydi<sup>16</sup>. Bu fikr XX asr 20–30-yillaridagi G‘arb adabiyotida keng tarqalgan “yo‘qotilgan avlod” mavzusiga xos xususiyatlar aynan afg‘on urushi haqidagi asarlarda ham o‘z aksini topganligini asoslaydi.

Umuman olganda, adabiyotshunoslikda urush mavzusining o‘rganilishi bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar tarixiy omillar, adabiy davrlarga xos xususiyatlar, ijodkor tarjimai holi va badiiy maqsadi kabi masalalar doirasida olib borilgan. XX asrda urush mavzusi adabiyotshunoslikning dolzarb muammolardan biri sifatida patsifizm, gumanizm g‘oyalari hamda “yo‘qotilgan avlod”, davr va qahramon masalalari yuzasidan o‘rganilgan. Ammo urush kishilari tasvirida badiiy psixologizmning o‘rnini belgilash, mazkur obrazlarning turli mamlakatlar adabiyotidagi o‘ziga xos xususiyatlarini qiyosiy aspektida o‘rganish muammolari dolzarbligicha qolmoqda.

Bobning ikkinchi fasli **“Urush kishilari badiiy obraz sifatida: genezis va taraqqiyot”** deb nomlangan bo‘lib, unda jahon va o‘zbek adabiyotidagi urush kishilari obrazining tadrijiy takomili o‘rganilgan.

Urush kishilari obrazi badiiy tafakkur tadriji bilan aloqador holda rivojlanib, ibtidoiy tafakkur mahsuli bo‘lmish miflardagi ilohlar, xalq og‘zaki ijodi namunalariidagi fantastik qahramonlar mazkur obrazning genezisini tashkil etadi. Jumladan, Ishtar, Ares, Mars, Indra, Shiva, Mitra singari qadimgi xalqlarning mifik tasavvuridagi xudolar, shuningdek, Gerakl, Axilles, Arjun, Rustam, Go‘ro‘g‘li, Alpomish singari turli xalqlar folklori qahramonlarida qadimgi insonlarning mardlik, jasorat va bahodirlik haqidagi ideallari mujassamlashgan. O‘z navbatida qahramonlik haqidagi folklor motivlari qadimgi yozma adabiyot namunalariiga ham ko‘chib o‘tib, Homerning “Iliada”, Firdavsiyning “Shohnoma” kabi asarlarida o‘z ifodasini topgan.

O‘rta asrlar davriga kelib urush kishilari obrazi Sharq va G‘arb adabiyotida turlicha talqin etilgan. Sharq mumtoz ijodkorlari tomonidan urush adolat, haqiqat va ezgulikning g‘alabasi haqidagi gumanistik g‘oyalarini ilgari surish vositasi sifatida ifodalangan bo‘lsa (bu borada, ayniqsa, “Xamsa”larning Iskandar haqidagi jangnoma-dostonlari alohida ahamiyatga ega), Yevropa adabiyotida jangovar qahramonlar katolik cherkovi g‘oyalariga bo‘ysundirilgan. Yevropada asosiy qahramonlar qirolning sodiq vassal va ritsarlari bo‘lsa, Sharqda adolatli hukmdorlar hamda xalq og‘zaki ijodidan yozma adabiyotga ko‘chgan bahodirlar muhim o‘rin egallagan.

G‘arb adabiyotida Yevropa Renessans davridan boshlab tantanavor ruhdagi jangovar jasoratlarga emas, urushning salbiy oqibatlari va zulmni qoralovchi

---

<sup>15</sup> Каримов Х. Ўзбек романларининг тараққиёт тамойиллари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. – Б.108.

<sup>16</sup> Йўлдошев К. Изтироб чакинлари. // Нурмуродов А. Қон хиди. – Тошкент: Zabarjad Media, 2020. – Б.7.

gʻoyalarga keng oʻrin berilgan. Xususan, Fransua Rablening “Gargantuya va Pantagryuel”, Migel de Servantesning “Don Kixot” romanlarida oʻrta asr ideologiyasi oʻtkir hajv ostiga olinib, urushga tashna qirollar va urushqoq ritsarlar haqidagi afsona hamda romanlar satirik usulda rad etilgan.

Renessans davri mualliflari urushlarni qoralab, maʼrifat va insonparvarlik gʻoyalarini ilgari surishga urgʻu bergan. Bu xususiyat keyingi davrlar adabiyotiga ham taʼsir oʻtkazib, urush insoniyat maʼnaviy qadriyatlariga zid jarayon sifatida aks ettirilgan. Ayniqsa, XX asr Gʻarb adabiyotida jahon urushlari taʼsiri sababli patsifizm gʻoyasi yetakchi xususiyat kasb etib, urush faqat qora boʻyoqlarda, kulfat va fojia sababchisi sifatida tasvirlangan. Erix Mariya Remark, Ernest Xeminguey, Jon dos Passos, Richard Oldington, Uilyam Folkner kabi adiblar ijodida “yoʻqotilgan avlod” vakillari, fashizm qurbonlari: muhojirlar va asirlar obrazlari vositasida urushning fojiaiy xarakteri aks ettirilib, gumanistik gʻoyalari ilgari surilgan.

XX asr oʻzbek adabiyotida Ikkinchi jahon urushi va afgʻon urushi talqinlari orqali urush kishilari obrazi turlicha koʻrinishlarda aks ettirilgan. Ikkinchi jahon urushi mavzusida yozilgan asarlarda frontdagi askarlar hamda front orti kishilari obrazlari orqali vatanparvarlik, qahramonlik, insoniy matonat va maʼnaviy jasorat tasvirlangan. Abdulla Qahhorning “Asror bobo”, “Xotinlar” hikoyalari, “Oltin yulduz” qissasi, Oybekning “Quyosh qoraymas”, Shuhratning “Shinelli yillar”, Said Ahmadning “Ufq”, Rahmat Fayziyning “Hazrati inson” romanlari bunga misol boʻla oladi.

Afgʻon urushi mavzusida yaratilgan asarlarda esa bemaqsad urushdan aziyat chekkan askar obrazi asosiy oʻrin tutib, urushni qoralash gʻoyasi va fojia tasviri yetakchilik qilgan. Mazkur asarlarga xos umumiy xususiyat fojiaiy ruhning ustunligidir. Jumladan, Oʻtkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanida urush qatagʻon siyosatini bilan yonma-yon, oʻzaro bogʻliq holda tasvirlansa, Abdurashid Nurmurodovning “Qon hidi”, Qoʻchqor Norqobilning “Daryo ortidagi yigʻi”, Gʻafur Poʻlatovning “Herirud faryodi”, Mamatqul Hazratqulovning “Chiroq oʻchmagan kecha” singari asarlarida “afgʻonchi” askarlarning urush payti va urushdan keyingi kechmishlari parallel ifodalanib, askar ruhiyati tasviri yetakchi oʻrinda turadi.

Xullas, badiiy adabiyot tarixida urush mavzusi salmoqli oʻrin tutganligi sababli urush kishilari obrazi ham juda qadimiy taraqqiyot yoʻlini bosib oʻtgan. Genezis va tarixiy taraqqiyot bu obrazlarni quyidagi turlarga boʻlishimizga asos boʻldi:

1. Ilohiy obrazlar. – Bu turga qadimgi xalqlar miflaridagi urush xudolari kiradi: Mars, Ares, Shiva, Ishtar va boshq. Bu obrazlar sof mifik xarakterda boʻlib, badiiy tafakkurning ibtidoiy davri mahsuli hisoblanadi.

2. Afsonaviy obrazlar. – Bu turdagi obrazlarga folklor va qadimgi yozma adabiyotdagi qahramonlar misol boʻladi: Gerakl, Axilles, Eney, Arjun, Kuxulin, Rustam, Goʻroʻgʻli, Alpomish va hok. Ushbu qahramonlar ilohiy kuch-qudratga ega boʻlgan inson obrazidir. Bu qahramonlar ham toʻqima obrazlar boʻlib, ularda “ilohiy qon”, “oʻq oʻtmaslik”, yengilmaslik, boshqalardan yaqqol ajralib turadigan ulkan kuch-qudrat kabi mubolagʻador xususiyatlar mavjud. Bu obrazlar qadimgi xalqlarning mardlik, jasorat va qahramonlik haqidagi ideallarini aks ettiradi.

3. Tarixiy shaxslar obrazi – o‘tmishdagi mashhur podsho yoki sarkardalarning badiiy variantlari. Masalan: Iskandar, Artur, Roland va hokazo. Ushbu obrazlar real tarixiy shaxslarning badiiylashgan prototiplari hisoblanadi. Ular afsonaviy va realistik obrazlarga xos xususiyatlarni birlashtiruvchi oraliqdagi qahramonlar bo‘lib, real hayotiy asosga ega bo‘lish bilan birga badiiy asarlarda ideallashtirilib, afsonaviy bahodirlarga xos xususiyatlarni ham ifodalaydi.

4. Realistik obrazlar – oddiy jangchilar, ozodlik kurashchilari yoki urush orti odamlari. Bu turga mansub obrazlar ko‘proq yangi davr adabiyotiga xos bo‘lib, ularda afsonaviy bahodirlarga xos tengsiz botirlik, yengilmas qudrat kuzatilmaydi. Bu qahramonlar ko‘proq ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lib, urushni qoralash yoki urush dahshatlarini haqqoniy tasvirlashga xizmat qiladi. Shuningdek, urush kishilari obrazining ayrim realistik vakillari ham mardlik, vatanparvarlik va qahramonlik namunasi sifatida tasvirlanishi mumkin. Biroq ularda yuqorida keltirilgan turlardagi obrazlar kabi mubolag‘ador xususiyatlar, ideallashtirish holatlari kuzatilmaydi. Bu turdagi qahramonlarga xos yana bir muhim xususiyat shundaki, ularning ma’naviy dunyosi, ruhiy kechinmalari tasviriga ham jiddiy urg‘u beriladi. Misollar: A.Bolkonskiy, N.Rostov (L.Tolstoy. “Urush va tinchlik”), F.Genri (E.Xeminguey. “Alvido, qurol!), P.Boymer (E.M.Remark. “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q”), Bektemir (Oybek. “Quyosh qoraymas”), Elmurod (Shuhrat. “Shinelli yillar”), Ikromjon (S.Ahmad. “Ufq”) va hokazo.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**XX asr nemis va o‘zbek harbiy prozasida davr muammolari talqini**” deb nomlanib, unda Erix Mariya Remark va O‘tkir Hoshimov romanlari vositasida urush mavzusining ikki adabiyotdagi talqinlari o‘zaro qiyoslangan.

XX asr chet el va o‘zbek adabiyotida urush hamda inson munosabatlari talqiniga bag‘ishlangan asarlarning qahramonlarini ikki guruhga ajratish mumkin:

- 1) bevosita urush ishtirokchisi bo‘lgan askar yoki zobit obrazi;
- 2) urushda qatnashmagan, lekin asardagi taqdiri urush bilan bog‘liq bo‘lgan xalq vakillari obrazi.

Birinchi toifaga mansub obrazlar front voqealari, jang lavhalari va ularning askar ruhiyatiga ta’sirini aks ettirishga xizmat qiladi. Asarlardagi askar va zobit obrazlarining xatti-harakatlari, o‘y-kechinmalari yordamida front voqeligi hamda urushning inson ma’naviyatiga ta’siri ifodalanadi. Ayni paytda, urush faqat jangohdagi askarlarning emas, frontdan uzoqda bo‘lgan oddiy xalq vakillarining ham taqdiriga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Bu jarayonni tasvirlashda ikkinchi guruhga mansub qahramonlar muhim o‘rin tutadi.

Bobning “**E.M.Remark va O‘.Hoshimov romanlarida urush kishilari tipologiyasi**” deb nomlangan birinchi faslida mazkur yozuvchilarning urush mavzusidagi asarlari va ularning qahramonlari tasnif qilingan. Har ikki yozuvchining urush kishilari obrazi ishtirok etgan asarlari tasvir obyektini jihatidan ikki guruhga bo‘linadi. Xususan, Erix Mariya Remarkning urush mavzusidagi asarlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

- 1) “yo‘qotilgan avlod” haqidagi asarlar. Bu guruhga “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” (“*Im Westen nichts Neues*”), “Ortga yo‘l” (“*Der Weg zurück*”), “Uch og‘ayni” (“*Drei Kameraden*”), “Qora haykal” (“*Der schwarze Obelisk*”) romanlari kiradi.

Mazkur asarlarda Birinchi jahon urushi va undan keyingi davr voqealari aks ettirilib, ularning asosiy qahramonlari urushda ishtirok etgan askarlar, shuningdek, urush oqibatlari natijasida hayoti izdan chiqqan turli toifadagi insonlar hisoblanadi;

2) muhojirlik mavzusidagi asarlar. Bu guruhga “G‘alaba arki” (“*Arc de Triomphe*”), “Hayot uchquni” (“*Der Funke Leben*”), “Hayot-mamot pallasi” (“*Zeit zu leben und Zeit zu sterben*”), “Lissabondagi tun” (“*Die Nacht von Lissabon*”) kabi romanlar kiradi. Ushbu asarlarda Ikkinchi jahon urushi yillari voqealari tasvirlangan. Ulardagi asosiy qahramonlar fashizm ta’qibi natijasida o‘z yurtini tark etgan muhojirlardir. Mazkur guruhga kiruvchi asarlarda Ikkinchi jahon urushi va fashizmning antigumanistik mohiyati ochib berilgan.

O‘tkir Hoshimovning urush mavzusidagi asarlarini ham ikki guruhga bo‘lgan holda quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

1) Ikkinchi jahon urushi haqidagi asarlar. Bu guruhga “Urushning so‘nggi qurboni”, “Xotam xasisning xazinasini” hikoyalari va “Ikki eshik orasi” romani kiradi. Ularda Ikkinchi jahon urushining jamiyat hayotiga fojiali ta’siri Shoikrom, Umri xola, Muzaffar, Robiya, Kimsan, Shomurod kabi obrazlar vositasida aks ettirilgan;

2) afg‘on urushi haqidagi asarlar. Bu guruhga “Nega, nega-a?!” hikoyasi va “Tushda kechgan umrlar” romani mansub bo‘lib, ularda shu urush sababli behuda qurbon bo‘lgan yoshlar haqida hikoya qilingan. O‘tkir Hoshimovning afg‘on urushi mavzusidagi asarlarida ham fojiviy ruh ustun turadi.

Yuqoridagi asarlarning g‘oyaviy-falsafiy jihatdan umumiylik kasb etishida ulardagi obrazlarning o‘xshash xususiyatlari asosiy rol o‘ynaydi. Ayniqsa, Remarkning “yo‘qotilgan avlod” haqidagi asarlari qahramonlari (Paul Boymer, Robert Lokamp) va O‘tkir Hoshimov asarlaridagi afg‘on urushi ishtirokchilari obrazlarida (Rustam, Xayriddin) “yo‘qotilgan avlod”ga xos frontdagi birodarlik, urush yetkazgan ruhiy-ma’naviy jarohat, urushdan keyingi hayotga, jamiyatga moslasha olmaslik kabi xususiyatlarda aniq ko‘rinadi. Shuningdek, mazkur asarlar o‘rtasida muallif uslubi va syujet nuqtai nazaridan farqlanishlar ham mavjud. Xususan, E.M.Remark asarlarida voqealar birinchi shaxs tilidan, ya’ni hikoyachi-qahramon vositasida bayon etilsa, O‘.Hoshimov asarlarida muallif tilidan hikoya qilish yoki bir nechta qahramon tilidan turli rakurslardagi bayon uslubi yetakchilik qiladi. Bundan tashqari, Remark asar qurilishida xronikali syujetdan foydalangan bo‘lsa, O‘tkir Hoshimov asarlari syujetida retrospeksiya hamda konsentriklik xususiyatlari asosiy o‘rinda turadi.

Bobning ikkinchi fasli **“Yo‘qotilgan avlod”: qahramon va davr talqini** deb nomlanib, unda E.M.Remarkning “Uch og‘ayni” va O‘.Hoshimovning “Tushda kuchgan umrlar” romanlari tahlilga tortilgan.

“Yo‘qotilgan avlod” (“lost generation”) masalasi XX asrning 20–30-yillari G‘arb adabiyotida muhim o‘rin tutib, Birinchi jahon urushidan keyin patsifistik ruhdagi asarlarning sezilarli darajada ortishiga sabab bo‘ldi. Belarus adabiyotshunosi va tarjimon I.Bassning keltirishicha, Gertruda Stayn tomonidan iste’molga kiritilgan bu atama urushning salbiy asoratlari ostida jamiyatdan uzilgan, urushdan keyin har qanday e’tiqoddan voz kechgan avlodni anglatadi<sup>17</sup>. Gertruda Stayn tilidan aytilgan

<sup>17</sup> Басс И. Жизнь и время Гертруды Стайн. – М.: Аграф, 2013. – С.17.

“yo‘qotilgan avlod” iborasi badiiy adabiyotda ilk marta amerikalik yozuvchi Ernest Xemingueyning “Quyosh baribir chiqaveradi” romanida epigraf sifatida ishlatilgan: “*You are all a lost generation*”<sup>18</sup>. [“*Sizlarning barchangiz yo‘qotilgan avlodsiz*”]. Bu jumlada Birinchi jahon urushining butun boshli ishtirokchilariga ta’rif berilgan. Ushbu avlodning frontda va urushdan keyingi yillarda boshdan kechirgan voqealari, his-tuyg‘ulari AQSH va G‘arbiy Yevropaning bir qator adiblari ijodida muhim mavzuga aylangan. Natijada, XX asrning 20-yillarida “yo‘qotilgan avlod” deb nomlanuvchi turkum yuzaga kelib, Ernest Xeminguey, Frensis Skott Fitzjerald, Jon Dos Passos, Uilyam Folkner, Richard Oldington, Erix Mariya Remark kabi yozuvchilarni mazkur adabiyotning namoyondalari sifatida keltirish mumkin. Ular tomonidan yaratilgan “Quyosh baribir chiqaveradi”, “Alvido, qurol!” (E.Xeminguey), “Buyuk Getsbi” (S.Fitzjerald), “Uch askar” (J.D.Passos), “Askar mukofoti” (U.Folkner), “Qahramonning o‘limi” (R.Oldington), “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q”, “Ortga yo‘l”, “Uch og‘ayni” (E.M.Remark) kabi romanlarda urush sababli hayoti izdan chiqqan insonlarning taqdiri va o‘y-kechinmalari realistik obrazlar vositasida tasvirlangan. Bu tipdagi asarlarda urush epizodlarini tasvirlash bilan birgalikda sobiq askarlarning urushdan keyingi hayoti va taqdiri ham aks ettirilgan. Birinchi jahon urushining fojiali oqibatlari, bu urushga insonlarning munosabati masalasi “yo‘qotilgan avlod” adabiyotining asosiy mavzusi edi.

Remarkning “Uch og‘ayni” romani urushdan qaytgan sobiq askarlar, shuningdek, urushning salbiy asoratlari ostida qolgan jamiyatda yashayotgan insonlar obrazi aks ettirilgan. Romanda turli ijtimoiy toifaga mansub kishilarning psixologik holati, xarakter va taqdirlari vositasida ikki jahon urushi oralig‘idagi Germaniya jamiyati manzarasi aks etgan. Muallif asarda o‘tgan urush qoldirgan asoratlarni tasvirlash bilan cheklanmay, yaqinlashib kelayotgan fashizm va yangi jahon urushi xavfini ham badiiy aks ettirgan. Urush va siyosiy-mafkuraviy evrilishlar davri fojiasi romanning asosiy mavzusi bo‘lgan. Xususan, asar voqealari Robert Lokamp tilidan hikoya qilingan bo‘lib, mazkur obraz nigohi orqali davrning barcha muammolari, asardagi boshqa qahramonlar (Kester, Lents, Patriitsiya, Grau, Xasse va boshq.)ning xarakter va taqdirlari batafsil bayon etilib, bir zanjirga tizilgan yaxlit manzara aks ettirilgan.

O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanida esa afg‘on urushi va mustabid tuzumning salbiy asoratlari ta’sirida hayoti izdan chiqqan qahramonlar taqdiri o‘z aksini topgan. Mazkur asarda ham Remark romanlaridagi kabi davrning adolatsizligi, hukumat siyosati qurboni bo‘lgan kishilarning fojiali taqdiri, o‘y-kechinmalari tasviri yetakchi o‘rinda turadi. Ayniqsa, urush bilan bog‘liq bo‘lgan epizodlar, urushning insoniyat kelajagi uchun keltirishi mumkin bo‘lgan vayronkor oqibatlari tipik obrazlar vositasida ifodalangan. Romanning asosiy voqealari o‘tgan asrning 80-yillarida kechib, “afg‘on urushi” va “o‘zbek ishi” muammolari muallifning tasvir markazida turadi. Bu jarayon bosh qahramon Rustamning kundaliklari orqali bayon etilib, qahramon munosabati vositasida davr muammolari badiiy talqin etilgan. Rustamning Afg‘onistonda boshdan o‘tkazgan kechmishlari Xayriddin, Temur kabi obrazlar bilan, urushdan keyingi hayoti esa komissar

---

<sup>18</sup> Ernest Hemingway. *The Sun Also Rises*. – New York: The Modern Library, 2016. – P.6.

Gʻaniyev, Grisha, Shahnoza, Qurbonoy xola obrazlari bilan bogʻliq holda tasvirlangan. Bu masalaga U.Toʻrayeva ham alohida eʼtibor qaratgan holda yozuvchi davr muammolarini Rustam – Gʻaniyev, Rustam – Grisha, Rustam – Qurbonoy xola, Rustam – Shahnoza syujet chiziqlarida yoritib berganligini qayd etgan<sup>19</sup>. Romandagi asosiy qahramonlarning taqdir va kechinmalari Rustamning oʻlimi boʻyicha tergov jarayoni orqali bir markazda tutashadi. Qahramonlarni bir-biriga bogʻlash funksiyasiga koʻra Rustam “Uch ogʻayni” romani bosh qahramoni Robertga yaqin turadi.

Ishning uchinchi bobi **“Gʻarbiy frontda oʻzgarish yoʻq” va “Tushda kechgan umrlar” romanlarida badiiy psixologizm** deb nomlangan. Bobning **“Askar obrazini yaratishda psixologizmning oʻrni”** deb nomlangan birinchi faslida ushbu romanlarda aks etgan qahramon ruhiyati tasvirining gʻoyaviy va badiiy-estetik funksiyasi tadqiq etilgan. Erix Mariya Remark va Oʻtkir Hoshimov romanlarida askar obrazining intellektual hamda psixologik dinamikasi qahramon va muhit konflikti vositasida ifodalangan. Xususan, “Gʻarbiy frontda oʻzgarish yoʻq” va “Tushda kechgan umrlar” romanlarida bevosita front manzarasi bosh qahramon nigohi orqali tasvirlanib, qahramon munosabati fonida urushning absurd mohiyatini ochishga urgʻu berilgan. Urushning badiiy manzarasi Remarkda bosh qahramon Boymer tilidan hikoya qilingan boʻlsa, Oʻtkir Hoshimovda kundalik detali badiiy vosita vazifasini bajargan.

Remark va Oʻtkir Hoshimov askarlarning urushga qarshi kayfiyatini ifodalash orqali qandaydir ijtimoiy-siyosiy dasturni ilgari surmagan. Bu masalada ularga qaysidir mafkuraning targʻibotchisi sifatida emas, oʻz gumanistik gʻoyalarini ifodalovchi yozuvchi sifatida baho berish oʻrinli boʻladi. Xususan, “Gʻarbiy frontda oʻzgarish yoʻq” romani qahramonlari siyosiy inqilobchilar emas, balki tinch hayotga intiluvchi, urushdan bezgan va nafratlanadigan oddiy insonlardir. Adabiyotshunos va tarjimon A.Bansning roman haqidagi maqolasida bu xususiyatga alohida urgʻu berilgan: “Bu roman qahramonlari patsifistik ruhdagi siyosiy dasturni emas, xalqlar doʻstligi va tinchlik haqidagi koʻngil mayllarini namoyish etganlar”<sup>20</sup>. Boymer va uning doʻstlari urush masalalarida oʻz qarashlariga ega: ular oʻldirish emas, tirik qolish haqida qaygʻuradi.

Oʻtkir Hoshimov yaratgan personajlar ham asar davomida urush haqida oʻz xulosalariga ega boʻlib boradi. Bu masalada Rustam bilan birgalikda Xayriddin obrazi ham katta oʻrin tutadi. Romanda Xayriddin tilidan urushga quyidagicha taʼrif berilgan: “*Urush teskari haqiqat degani ekan. Odam boʻlging kelsa, shafqatsiz boʻl. Oʻlging kelmasa, oʻldir*”<sup>21</sup>. Ushbu jumlada urushning asl mohiyati hamda adolat va haqiqat tamoyillari oʻrtasidagi antiteza qahramonning xulosasi fonida ifodalanib, bu orqali muallifning urush haqidagi oʻz qarashlari ilgari surilgan.

“Gʻarbiy frontda oʻzgarish yoʻq” va “Tushda kechgan umrlar” romanlarida urushning askar ruhiyatiga taʼsirini ifodalashda oʻlim tasviri ostiga tag maʼno yuklangan. Gap shundaki, mualliflar asosan yosh oʻspirinlarning oʻlimini tasvirlashga alohida urgʻu beradi. Jumladan, “Gʻarbiy frontda oʻzgarish yoʻq” romanida quyidagi

<sup>19</sup> Тураева У. Давр ва қаҳрамон. // “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали. 2000, №2. – Б.42.

<sup>20</sup> Vance A. “Im Westen Nichts Neues”: A Bestseller in Context, Modern Language Review, 72 (1977). – P.365.

<sup>21</sup> Ҳошимов Ў. Тушда кечган умрлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – Б.100.

tasvirlarga duch kelamiz: *“Wir legen die Toten vorläufig in einen großen Trichter. Es sind bis jetzt drei Lagen übereinander”*<sup>22</sup>. [*“Murdalarni katta bir chuqurga taxlaymiz. Hozircha ustma-ust uch qavat bo‘ldi”*<sup>23</sup>]. Yuqoridagi parchada ko‘plab insonlarning jang maydonida halok bo‘lishi, qurbonlar sonining ortib borayotganligi tasvirlanib, bu jarayon qahramon tilidan oddiy holatdek bayon etilgan. Bu ham askar obrazining urushdagi psixologik holatini aks ettirib, askarning sovuqqon munosabati orqali shu kabi fojialar odatiy holatga aylanganligini anglatadi. Askarda ruhiy moslashuv sodir bo‘lganligi yuqoridagi epizodda aks etib turadi. Navbatdagi parchada urush qurbonlarning ko‘pchiligi yosh askarlar ekanligi alohida ta’kidlangan: *“Auf einen alten Mann fallen fünf bis zehn Rekruten”*<sup>24</sup>. [*“Halok bo‘lgan bitta keksa jangchiga besh-o‘nta yosh jangchining jasadini to‘g‘ri keladi”*<sup>25</sup>]. Bu epizodda birinchi marta jangda ishtirok etayotgan o‘spirinlarning frontdagi holati, oddiy sabablar tufayli o‘lim topayotganliklari bayon etilgan. O‘spirin jangchilarga hikoyachi-qahramon achinadi, ularga yordam bera olmasligidan afsuslanadi. Ayni paytda, o‘zi va tengdosh do‘stlari ham ular bilan taqdiridosh ekanligini yaxshi his etadi. Yosh va behuda qurbon bo‘lganlar sifatida faqat yangi, tajribasiz askarlar emas, umumiy askarlar jamoasi nazarda tutilgan.

“Tushda kechgan umrlar” romanida ham urushning insoniylikdan yiroq bo‘lgan qiyofasi askar obrazining psixologik holati vositasida ochib berilgan epizodlar salmoqli o‘ringa ega. Jumladan, bosh qahramon Rustam jang maydonida turli azob-uqubatlarni ko‘rib, psixologik jihatdan izdan chiqayotgan askarlarning tipik vakilidir. Quyidagi parchada bu jarayon aniq ko‘rinadi: *“Uch oydan beri hech nima yozmadim. Umuman... Hech nimaning qizig‘i yo‘q menga. Hech nimaga hayron ham qolmayman... Qismda har haftada yangi gap tarqaladi. “Falon joyda ko‘prik portlabdi”. Xo‘sh, nima bo‘pti? Ko‘prik bo‘lganidan keyin portlaydi-da! “Bitta “dux”ni tutib olib, tank zambaragiga tross bilan osishibdi”. Nima qipti! “Dux” bo‘lgandan keyin osish kerak-da!”*<sup>26</sup>. O‘tkir Hoshimov ham mazkur lavhada askarlar ruhiyatidagi o‘zgarishni tasvirlab, inson qalbidagi yovvoyi instinktlarga e’tibor qaratgan. Front voqeligi askar qalbida turli buzg‘unchi, vahshiy hissiyotlar, shafqatsizlik kayfiyatini keltirib chiqarishi ta’kidlanib, Rustamning dushman vakilining qiynoqqa solinishiga nisbatan loqayd munosabati vositasida qahramon ruhiy olamidagi evrilish ochib berilgan.

Bobning **“Romanlarda dushman obrazining g‘oyaviy-falsafiy xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi faslida ijodkorlar tomonidan ilgari surilgan urushni rad etuvchi g‘oyalarning ifodalanishida dushman obrazining o‘rni masalasi tahlilga tortilgan. “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” va “Tushda kechgan umrlar” romanlarida bosh qahramonning dushmanlar bilan munosabatiga gumanistik mazmun berilib, harbiy dushmanlik va insoniy birdamlik antitezasi orqali urushni rad etuvchi patsifizm g‘oyasi ilgari surilgan.

<sup>22</sup> Erich Maria Remarque. Im Westen nicht Neues. – Köln: Kiepenheuer & Witsch, 1971. – S.95.

<sup>23</sup> Remark E.M. G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – B.115.

<sup>24</sup> Erich Maria Remarque. Im Westen nicht Neues. – Köln: Kiepenheuer & Witsch, 1971. – S.97.

<sup>25</sup> Remark E.M. G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – B.117.

<sup>26</sup> Хoшимов Ў. Тушда кечган умрлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – Б.112.

Rus tadqiqotchisi D.Aristov zamonaviy harbiy prozada tasvirlangan urush kishisi obraziga shunday ta'rif beradi: "Bu qahramon urushni o'z insoniy tabiatiga qarshi zo'ravonlik deb hisoblaydi. Bunday sharoitda ekzistensial muammolar axloqiy-ma'naviy burchdan, tirik qolishga intilish tuyg'usi jasorat va qahramonlikdan ustun turadi"<sup>27</sup>. "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" va "Tushda kechgan umrlar" romanlarida ham shunday xususiyatlar asosiy o'rinda turadi. Romanlarning bosh qahramonlari: Boymer va Rustanning ongida urush natijasiga nisbatan loqayd munosabat tasvirlangan. Har ikki askar ruhiyatida dushmani mag'lub etish emas, tezroq urushdan xalos bo'lib, uyga qaytish istagi yetakchilik qiladi. Chunki ushbu qahramonlar o'zlari ishtirok etayotgan urushdan mantiq ko'rmagan. Mazkur romanlarda tasvirlangan urush manzarasi, asar syujeti va qahramonning psixologik evolyutsiyasi yuqoridagi xulosani keltirib chiqarishga xizmat qiladi.

Mualliflar urushning mohiyatini ochishda "asl dushman" tushunchasiga falsafiy mazmun berib, qahramon munosabatining o'zgarib borish jarayonida diqqat-e'tiborni "harbiy dushman"dan "asl dushman" tushunchasi tomon burib yuboradi. Natijada, asar davomida qahramonning "dushman" sifatidagi munosabati qarama-qarshi tomondagi qo'shin yoki mamlakatdan urush tashkilotchisi bo'lgan hukmron doiralarga ko'chadi. Xususan, Remark ijodini o'rgangan tadqiqotchi Z.Xristopolovning fikricha, "G'arbiy frontda o'zgarish yo'q" romanida muallif dushman askarlarini ham nemislar singari urushning behuda qurboni sifatida tasvirlab, ular bir-biri bilan hukmron doiralarning xohishiga ko'ra jang qilayotganligiga alohida urg'u bergan va bu orqali urushning asl mohiyatini fosh etgan<sup>28</sup>. Tadqiqotchi asar qahramonlarining dushmanga munosabati tasviriga e'tibor qaratgan holda, romanda "asl dushman" masalasi fosh etilganligini ta'kidlaydi. Darhaqiqat, asar qahramonlarining fikriga ko'ra, eng muhim jang dushman askarlariga qarshi emas, balki ularni urushishga majbur qilgan hukmron doira vakillariga qarshi bo'lishi kerak. Roman qahramonlari dushmanlar haqida so'zlashganda boshqa tarafdagi askarlarni emas, o'zlarining yuqori martabali rahbarlarini nazarda tutadilar. Masalan, romanning to'qqizinchi bobida askarlarning kayzer bilan uchrashuvi tasvirlanib, ushbu vaziyatda asar qahramonlaridan biri Katchinskiy tilidan aytilgan urush haqidagi fikrlar muallif munosabatini aniq ifodalaydi: "*Bedenk doch mal, daß wir fast alle einfache Leute sind. Und in Frenkreich sind die moisten Menschen doch auch Arbeiter, Handwerker oder kleine Beamte. Weshalb soll nun wohl ein französischer Schlosser oder Schuhmacher uns angreifen wollen? Nein, das sind nur die Regierungen. Ich habe nie einen Franzosen gesehen, bevor ich hierherkam, und den moisten Franzosen wird es ähnlich mit uns gehen. Die sind ebensowenig gefragt wie wir*"<sup>29</sup>. [*"Shuni hisobga olish kerakki, biz oddiy odamlarmiz. Fransiyada ham ishchilar, hunarmandlar va mayda xizmatchilar ko'p. Lekin bironta fransuz chilangari yoki kosibi bizga hujum qildimi? Yo'q, bunaqa ishlar hukumat idorasida hal qilinadi. Men bu yerga kelguncha bironta fransuzni*

<sup>27</sup>Аристов Д.В. Русская батальная проза 2000-х годов: традиции и трансформации. Автореферат дисс.канд.филол.наук. – Пермь, 2013. – С.8.

<sup>28</sup> Christopolou Z. The Literature and Memory of World War I. Remarque, Aldington and Myrivilis: Fictionalizing the Great War. (2006). James A. Rawley Graduate Conference in the Humanities. 9. <https://digitalcommons.unl.edu/historyrawleyconference/9>

<sup>29</sup> Erich Maria Remarque. Im Westen nicht Neues. – Köln: Kiepenheuer & Witsch, 1971. – S.150.

*uchratmaganman, ular ham nemisni ko'rishmagan. Xuddi biz kabi ulardan ham hech kim so'rab o'tirmagan*”<sup>30</sup>]. Katchinskiy uchun barcha askarlar kelib chiqishi yoki qaysi tomon vakili ekanligidan qat'iy nazar qurbonlardir. Remark asarda nemis yoshlarining urushdagi fojiali qismatini tasvirlagan bo'lsa-da, romanda ko'tarilgan muammo faqat nemis xalqininggina emas, urushda ishtirok etgan barcha xalqlarning, butun insoniyatning global muammosi sifatida talqin qilingan.

“Tushda kechgan umrlar” romanida ham Rustam va Xayriddin obrazlari orqali o'zbek jangchilarining afg'on xalqi bilan munosabatlari tasvirlanib, ikki qo'shni xalqning tarixiy-madaniy aloqalari va jarayonda davom etayotgan urush o'rtasidagi ziddiyat aks ettirilgan. Professor Umarali Normatov ta'kidlaganidek: “Romanda urush talqini tamomila o'zgacha. Avvalgi urush haqidagi asarlardan farqli o'laroq, bu yerda qarama-qarshi kuchlarni do'st-u dushmanga, oq-u qoraga, “biznikilar” va “raqiblar”ga ajratish yo'q; bu yerda g'olib-u mag'lublar, qahramonlar-u noqahramonlar yo'q. Faqat urush qurbonlari, tuzum, mafkuraviy ayirma, raqobat jabrdiydalari bo'lmish begunoh insonlar bor, xolos”<sup>31</sup>. Darhaqiqat, muallif o'z qahramoni Rustamning nigohi orqali afg'on urushini tasvirlar ekan, qahramon ichki kechinmalarida jarayonga nisbatan norozilik kayfiyati bosqichma-bosqich tarzda kuchayib boradi. Bu jarayonga quyidagi omillar asos bo'lib xizmat qilgan:

- 1) quroldosh birodarlarining behuda o'limidan ta'sirlanish;
- 2) mahalliy afg'on xalqining iztiroblariga bevosita guvohlik;
- 3) g'oya va real voqelik o'rtasidagi o'zaro nomuvofiqlikni idrok etish.

Roman qahramonlari Rustam va uning quroldosh do'sti Xayriddinda Afg'onistonga nisbatan dushmanlik kayfiyati sezilmaydi. O'tkir Hoshimov bu masalada asosiy badiiy yukni Xayriddin obraziga yuklagan. Muallif askarlar Afg'oniston hududiga endigina qadam qo'ygan vaziyatni tasvirlar ekan, Xayriddin tilidan Rustamga qarata aytilgan quyidagi jumlaning keltirgan:

*“Yerga qadam bosishim bilan Xayriddin ogohlantirdi:*

– *“Bismillo” deng, jo'ra! Bu tuproqda ajdodlarimiz yotibdi*”<sup>32</sup>. Yozuvchi shu birgina jumla vositasida o'zbek askarlarining Afg'onistondagi urushda ishtirok etishini mantiqsizlik sifatida ifodalagan. Mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ajdodlarning qabri joylashgan mamlakatga dushman askari sifatida tashrif buyurgan Xayriddinning yuqoridagi so'zlari ostida bu urushning asl mohiyatini fosh etishga qaratilgan ramziy ishora bor.

Shuningdek, Xayriddinning o'limi tasviri ham o'ziga xos tag ma'noga ega bo'lib, qahramon o'z tug'ilgan kunida dushman tomonda jang qilayotgan o'zbek jangarisi tomonidan o'ldiriladi. Tug'ilgan kundagi o'lim ramziy ahamiyat kasb etib, qahramon taqdirining fojiviyligi ko'lamini yanada kuchaytirgan. Shu bilan birgalikda, Xayriddinning hayotdan hech narsa topishga ulgurmay yosh qurbon bo'lganligi o'ziga xos usulda ifodalangan.

<sup>30</sup> Remark E.M. G'arbiy frontda o'zgarish yo'q. – Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2016. – B.176-177.

<sup>31</sup> Normatov U. Nasrdagi shoir e'hd ruhiyat manzillari. // Эл севган адіб (Ў.Ҳошимов замондошлари наздида). – Тошкент: Мумтоз сўз, 2011. – Б.71.

<sup>32</sup> Ҳошимов Ў. Тушда кечган умрлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – Б.84.

Bundan tashqari, shu epizodda Rustamning dushman askari bilan quyidagicha muloqoti keltirilgan: *“Qandaydir ichki sezgi bilan “dux” g‘imirlay boshlaganini his etdim... Yoqasidan bo‘g‘ib, silkita boshladim.*

*– Nima qilding, maraz! Nima qilding! – dedim yig‘lab.*

*– Qo‘yib yubor! – U o‘jiz tipirchilab bilagimga osildi. – Qo‘yib yubor!*

*Shundagina bir narsa shuurimga yetdi: “dux” o‘zbekcha gapirayotgan edi.*

*– Sen... – dedim g‘azabdanqaltirab. – Sen... O‘zbekmisan? Buyam o‘zbek-ku!..*

*Nima yomonlik qildi senga?!*

*– Senlar o‘zbekmi! – “Dux” yorilgan lablari orasidan qon tupurib, tishlarini g‘ijirlatdi. – Yo‘q! Senlar o‘zbekmas!.. Senlar “sho‘raviy”! Kim chaqirdi seni bu yerga?! O‘z yurtningni sotib bo‘lib, endi Afg‘onni ham harom qilmoqchimisani!”<sup>33</sup>.*

Mazkur lavhada Xayriddinning o‘z millatdoshi tomonidan o‘ldirilganligi oydinlashgan bo‘lib, mazkur holat nafaqat urushning g‘ayriinsoniy mohiyatini, balki bir millat vakillarini ikki dushman qutbga bo‘lib yuborgan mustabid tuzumning halokatli ta‘sirini ham anglatadi.

Demak, E.M.Remark va O‘.Hoshimov romanlarida patsifizm g‘oyasini ifodalashda dushman obrazi katta rol o‘ynagan. Qahramonning dushman vakillariga munosabati badiiy psixologizm vositasida tasvirlanib, askarning urush haqidagi xulosalarini bayon etishga xizmat qilgan.

## XULOSA

1. Urush mavzusida yaratilgan dastlabki asarlar mif va folklarga mansub bo‘lib, bunday asarlarda ilohiy qahramonlar: urush xudolari va yarim-ma‘bud bahodirlar obrazi asosiy o‘rinda turgan. Xalq eposlari syujetlari asosida qadimgi ijodkorlar tomonidan yozma dostonlar ham yaratilgan. Ushbu qahramonlik eposlari va jangnoma xarakteridagi dostonlarda bahodirlarning kuch-qudrati hamda ma‘naviy fazilatlarini urush tasvirlari vositasida madh etilgan. Qadimgi va o‘rta asrlarda urush hodisasi jasorat vositasi sifatida talqin etilib, xalqlarning mardlik va qahramonlik haqidagi ideallarini aks ettirgan.

2. Yevropa adabiyotida Uyg‘onish davridan keyingi asrlarda urushga bo‘lgan munosabatning o‘zgarishi gumanizm g‘oyasining keng tarqalishi bilan izohlanadi. Natijada, urush mavzusidagi asarlarning qahramonlari qudratli bahodir ko‘rinishidagi ideal obrazlar emas, jabrlangan, fojiali taqdir egasi bo‘lgan real obrazlar sifatida tasvirlana boshladi. Bu jarayon XX asr adabiyotida yuqori darajaga ko‘tarilgan. Shu tariqa urush kishilari badiiy obraz sifatida ilohiy qahramondan oddiy xalq vakiligacha bo‘lgan tadrijiy yo‘lni bosib o‘tdi.

3. XX asrning birinchi yarmi G‘arb adabiyotida g‘oyaviy-falsafiy jihatdan patsifizm davriga aylanib, Birinchi jahon urushining ma‘naviy oqibatlarini sababli harbiy mavzudagi asarlarda tragik pafos va urushga nisbatan rad etish kayfiyati yetakchi o‘ringa ko‘tarilgan. A.Barbyus, S.Fitzjerald, E.Xeminguey, R.Oldington, U.Folkner, E.M.Remark kabi yozuvchilarning asarlarida urushning g‘ayriinsoniy mohiyati, insoniyat hayotiga salbiy ta‘siri realistlik obrazlar vositasida tasvirlangan. Buning natijasida G‘arb adabiyotida “yo‘qotilgan avlod” turkumi vujudga kelgan.

<sup>33</sup> Хошимов Ў. Тушда кечган умрлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – Б.106.

4. Ijodida urush mavzusi yetakchi o‘rinni egallagan nemis yozuvchisi Erix Mariya Remark romanlari ikki guruhga bo‘linadi: 1) “yo‘qotilgan avlod” haqidagi asarlar; 2) muhojirlik mavzusidagi asarlar. Har ikki guruhga mansub asarlarida jahon urushlari sababli hayoti izdan chiqqan insonlar obrazi tasvirlagan bo‘lib, bu asarlar avtobiografik xarakterga egaligi bilan ham ahamiyatli. Remarkning “yo‘qotilgan avlod” tipidagi romanlari (“G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q”, “Ortga yo‘l”, “Uch og‘ayni”) Birinchi jahon urushi bilan bog‘liq bo‘lsa, muhojirlik mavzusidagi asarlar (“G‘alaba arki”, “Hayot uchquni”, “Lissabondagi tun”) Ikkinchi jahon urushining sababchisi bo‘lgan fashizmning antigumanistik mohiyatini badiiy aks ettiradi.

5. XX asr o‘zbek nasrida Ikkinchi jahon urushi va afg‘on urushi qahramonlarini badiiy aks ettirish hamda patsifizm g‘oyasini ifodalashda O‘tkir Hoshimov ijodi alohida o‘rin tutadi. Yozuvchi o‘zbek adabiyotida birinchilardan bo‘lib Ikkinchi jahon urushini proletar tuzumning g‘alabasi sifatida emas, umumxalq fojiasi ko‘rinishida tasvirlash (“Urushning so‘nggi qurboni”, “Ikki eshik orasi”) bilan birga o‘zbek harbiy prozasida ilk bor “yo‘qotilgan avlod” adabiyotiga xos mavzu va g‘oyalarni (“Nega, nega-a-a?!”, “Tushda kechgan umrlar”) ilgari surdi.

6. E.M.Remarkning “Uch og‘ayni” va O‘.Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romanlarida asosiy obrazlar “yo‘qotilgan avlod”ga xos xususiyatlarga ega. “Uch og‘ayni” romanida Birinchi jahon urushining salbiy asoratlari, “Tushda kechgan umrlar” romanida afg‘on urushi va qatag‘on siyosatining oqibatlarini badiiy ifodalangan. Romanlarda davr va qahramon muammosi urush asoratlari, siyosiy notinchlik hamda jamiyatdagi tahluka kayfiyatini aks ettiruvchi personajlar vositasida talqin etilgan.

7. “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” va “Tushda kechgan umrlar” romanlari frontdagi askarlarning intellektual va psixologik evolyutsiyasiga bag‘ishlangan. Urushlarning iqtisodiy va siyosiy manfaatdorlikka asoslanganligini idrok etgan yosh qahramonlarning kechinmalari vositasida har ikki urushga xos bo‘lgan mafkura hamda hayot haqiqati o‘rtasidagi teskari mohiyat ochib berilgan. Bu jarayonda Boymer va Rustam obrazlari hikoyachi-personaj hamda jonli guvoh vazifasini bajargan.

8. “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” va “Tushda kechgan umrlar” romanlarida dushman obrazining g‘oyaviy-falsafiy ahamiyati fosh etuvchilik, ya‘ni asl dushmanni anglash xususiyati bilan belgilanib, qahramonlarning dushman bilan munosabatlari fonida urushning asl mohiyatiga baho beriladi. Boymerning rus asirlari va fransuz askari bilan to‘qnashuvi mobaynida idrok etilgan haqiqatlar, Kropp va Katchinskiy tilidan dushman tomon vakillari haqida aytilgan fikrlar mazmunan urushni aldov mahsuli sifatida xulosalashga omil bo‘lgan. Rustam obrazi vositasida esa afg‘on urushiga safarbar qilingan o‘zbek jangchilarining mazkur urushga nisbatan inkor etuvchi munosabati ifodalaniib, bu borada quroldosh do‘stlarining o‘limi va urushdan jabr ko‘rgan afg‘on xalqiga achinish kayfiyati muhim vosita bo‘lib xizmat qilgan. Dushmanga nisbatan do‘stona munosabat paradoksi fonida iqrar va idrok xususiyati mujassamlashgan.

9. E.M.Remark va O‘.Hoshimov romanlari davr va milliy nuqtai nazardan jiddiy farqlansa ham, ijodkorlarning urush talqini bo‘yicha pozitsiyasi uyg‘un ekanligi aniq ko‘rinadi. Buning bosh omili mazkur yozuvchilar ijodida yetakchilik qiluvchi

patsifizm hamda gumanizm g'oyalarining mushtarakligi bilan xarakterlanadi. Urushni rad etish ruhidagi asarlar g'oyaviy jihatdan kelajak urushlarini oldini olish yo'lida katta ma'naviy ahamiyat kasb etadi.

**FERGANA STATE UNIVERSITY SCIENTIFIC  
COUNCIL FOR CONFERRING ACADEMIC DEGREES  
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 DIGITAL SCIENTIFIC COUNCIL**

---

**FERGANA STATE UNIVERSITY**

**KHOLMATOV OYBEK UMARJON UGLI**

**A COMPARATIVE-TYPOLOGICAL ANALYSIS OF THE PORTRAYAL  
OF WAR FIGURES IN THE NOVELS OF E.M.REMARQUE AND  
U.HOSHIMOV**

**10.00.06 – Comparative literature, contrastive linguistics  
and translation studies**

**ABSTRACT**  
**of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences)**

The topic of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation was registered with the Higher Attestation Commission under number B.2021.4.PhD/Fil2132.

The dissertation was completed at Fergana State University.

The dissertation abstract is available in three languages (Uzbek, English, Russian (summary)) on the Fergana State University website at (www.fdu.uz) and on the "Ziyonet" information-education portal at (www.ziyonet.uz).

**Scientific Advisor:** Kasimov Abdugapir Abdikarimovich,  
doctor of philological sciences, professor

**Official Opponents:** Sadikov Zohidjon Yakubjanovich,  
doctor of philological sciences, professor

Rasulova Umida Yo'ldosh qizi,  
doctor of philological sciences, professor

**Lead Organization:** Namangan State Institute of Foreign Languages

The defense of the dissertation will take place at the meeting of the Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02, authorized to award scientific degrees, at Fergana State University on "22<sup>nd</sup> may", 2025 at 8:00 (Address: 100151, Fergana City, B. Marg'ironi Street, House 105. Tel.: (99873) 244-57-82; e-mail: info@fdu.uz).

The dissertation can be reviewed at the Information Resource Center of Fergana State University (cataloged under registration number 519). Address: 100151, Fergana City, Murabbiylar Street, House 19. Tel.: (99873) 244-44-94.

The dissertation abstract was distributed on "5<sup>th</sup> may", 2025.

(Registry report number 28 dated "5<sup>th</sup> may", 2025)



**S.M. Muminov**  
Chair of the Scientific Council  
for Awarding Academic Degrees,  
Doctor of Philology, Professor

**M.T. Zakirov**  
Scientific Secretary of the Scientific Council  
for Awarding Academic Degrees,  
Candidate of Philological Sciences, Professor

**A.G. Sabirdinov**  
Chair of the Scientific Seminar under the Scientific Council  
for Awarding Academic Degrees,  
Doctor of Philology, Professor

## INTRODUCTION (Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation)

**Topicality and necessity of the research theme.** In world literary studies, investigating the portrayal of individuals affected by war from a scientific and theoretical perspective remains a crucial subject. By the 20<sup>th</sup> century, global literature's focus on the theme of war intensified, emphasizing the study of war characters through aspects such as heroic psyche and authorial style. This shift was largely influenced by socio-political events and the impact of world wars. Amid growing regional conflicts and the escalating geopolitical tensions globally, war continues to be one of the most prominent themes in literature. Therefore, a scholarly analysis of war characters depicted in literary works examining the period context, character psyche, authorial style, literary influence, distinctiveness, and artistic psychological depth holds significant importance.

In global literary criticism, specialized studies on the image of war figures gained momentum from the latter half of the 20<sup>th</sup> century, closely linked with globalization processes. Research in this area has focused on the genesis, evolutionary development, artistic interpretation, and categorization of war characters. Examining war characters provides insights into an author's poetic mastery and determines the ideological and philosophical significance and value of literary works, which leads to new conclusions on the evolution of these characters. In contemporary literary studies, analyzing works with war themes based on humanistic principles and investigating war characters using advanced methodologies from global literary criticism hold vital scientific relevance.

In recent years, Uzbek literature has increasingly focused on depicting individuals in connection with pressing societal issues, paying considerable attention to analyzing the psyche and inner world of characters. Artistic representations of period and human issues, and, notably, the portrayal of transformations within characters' thoughts and psyches as seen through war figures, are vividly captured in such works. Therefore, a comparative-typological examination of war figures depicted in both world and Uzbek prose, particularly within the novel genre, is a topic of significant scholarly importance. Currently, the ongoing socio-political processes on the international stage are further underscoring the importance of scholarly research on war themes. As emphasized by the President of Uzbekistan: "In these turbulent and challenging times, the complex and unprecedented global issues and risks facing humanity require a concerted effort to overcome. There is an urgent need to unite all well-meaning people toward this goal and to raise the role and responsibility of artistic expression in fostering humanitarian values among the youth, who make up nearly a third of the global population"<sup>34</sup>. In this regard, it is essential to conduct scholarly evaluations of literary works that embody pacifist principles, revealing the peace-promoting ideals articulated in these works through rigorous literary analysis.

This dissertation also aligns with Uzbekistan's strategic directives on the development of science and innovation. Notable among these are the Presidential

---

<sup>34</sup> Мирзиёев Ш.М. Нияти улуг халқнинг иши ҳам улуг, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019.

Decree PF-6097, issued on October 29, 2020, "On the Approval of the Concept for the Development of Science Until 2030", Decree PF-60, dated January 28, 2022, "On Development Strategies of the New Uzbekistan for 2022–2026", Resolution PQ-200, dated July 3, 2023, "On Measures for the Effective Organization of State Management in Higher Education, Science, and Innovation within the Framework of Administrative Reforms", and the Cabinet of Ministers' Resolution No.128, issued on March 13, 2024, "On the Measures to Implement Uzbekistan's Innovation Development Strategy in 2024–2025". This dissertation research contributes to fulfilling the objectives outlined in these and related normative-legal documents.

**Relevant research priority areas of science and developing technology of the Republic.** This study aligns with the Republic's priority scientific and technological development direction: I. "Forming and implementing a system of innovative ideas in the social, economic, cultural, and educational development of an information society and democratic state".

**Problem development status.** The study of wartime characters in world and Uzbek literary scholarship occupies a significant position. Western scholars like W.Dorow, D.L.Gustafsson, K.V.Nikich, D.Bevan, S.Hynes, M.Sonntag, M.Norris, E.Krimmer, J.E.Mackinnon, J.Vollmer, L.Goldensohn, K.McLoughlin, T.Riggs, and A.Vernon<sup>35</sup>, as well as Russian researchers such as P.Toper, O.Golovan, A.Ivanov, A.Malyshev, N.Vygovskaya, D.Aristov, V.Volkova, and E.Zadonskaya<sup>36</sup>, have contributed extensively to this field. In Uzbek literary studies, scholars like A.Sharopov, S.Mamajonov, N.Bekmirzaev, and U.Uljaboev have provided essential

---

